

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI



Darsdan tashqari ommaviy sport sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish moduli

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

O‘qituvchi: Kobilov Sobir Donaqulovich

1-MAVZU: MAKTABDAN TASHQARI OMMAVIY SPORT MUSOBAQALARINI O‘TKAZISH USLUBIYATI

REJA:

- 1.Ommaviy sport tadbirlarining vazifalari, vositalari va shakllari
- 2.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish



Ommaviy sport tadbirlarining vazifalari, vositalari va shakllari

Bugungi kunda O‘zbekistonda ommaviy sport musobaqalari haqiqiy xalq bayramlariga aylanib bormoqda. Ommaviy sport musobaqalari aynan shunday bayramlardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda qanday ommaviy bayramlar, ommaviy tomoshalar, teatrlashtirilgan konsertlar bo‘lmasin, albatta badiiy-sport tomoshalari elementlari qo‘llaniladi. Yildan-yilga bunday bayram tomoshalari ommalashib, badiiy jihatdan mukammalashib bormoqda



Ommaviy sport musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish

Ommaviy sport musobaqalari o'quvchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular jismoniy, texnik, taktik, psixologik funksional tayyorgarliklarni aniqlashga va takomillashtirishga yordam beradi, hamda qilinayotgan mehnatniig natijasini ko'rsatadi.

To'g'ri va yaxshi tashkil qilingan musobaqalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki musobaqalar faqat jismoniy sifatlargagina (kuchlilik chaqqonlik chidamlilik tezkorlik va boshq) emas, balki ruhiy-psixologik sifatlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa davrida sportchilarning tashkilotchilik o'zini tuta bilishlik jamoa maqsadini o'z maqsadidan yuqori quya olishlik kabi yana bir qancha sifatlarni ham takomillashtiradi.

Musobaqalarda qatnashuvchilar avvalambor, tajriba almashadilar, yangi mashg'ulot usullarini sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek ommaviy sport musobaqalari sport turlarini targ'ib qilishning eng yaxshi va hammabop formalaridan hisoblanadi.



2022-YIL 11-APRELDAGI MAHALLALARDA YOSHLARNI OMMAVIY SPORTGA JALB QILISHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDAGI PQ-201-SONLI QARORDA.

2022-yildan boshlab har yili an’anaviy tarzda 30-iyun-O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o‘tkaziladigan “Yoshlar forumi” doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo‘yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi joriy etildi





Birinchi bosqichda-ko'chalararo mahalla musobaqalari



Ikkinchi bosqichda-mahallalararo sektor musobaqalari



Uchinchi bosqichda-sektor musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida tuman (shahar) musobaqalari



To'rtinchi bosqichda-tuman (shahar) musobaqalari g'olib mahalla jamoalari o'rtasida viloyat musobaqalari



Beshinchi bosqichda-viloyat musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida respublika (final) musobaqalari

2023-yil 1-martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy qilindi



birinchi bosqichda-
tuman (shahar)
musobaqalari



ikkinchi bosqichda-
viloyat musobaqalari



uchinchi bosqichda-
respublika (final)
musobaqalari

Shunday amaliyot joriy qilindiki, unga muvofiq “Besh tashabbus olimpiadasi” hamda olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalari davomida g‘olib va sovrindorlarni (1-3 o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari va sport-ta’lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmaydi va ularga quyidagi malaka toifalari to‘g‘ridan to‘g‘ri beriladi



tuman (shahar) bosqichi
musobaqalarida gʻolib va
sovrindorlarni tayyorlagani
uchun-ikkinchi malaka
toifasi;
viloyat bosqichi
musobaqalarida gʻolib va
sovrindorlarni tayyorlagani
uchun-birinchi malaka
toifasi;
respublika (final) bosqichida
gʻolib va sovrindorlarni
tayyorlagani uchun-oliy
malaka toifasi.



2022/2023 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning qiziqishlari, talab va istaklaridan kelib chiqqan holda, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari hamda taniqli va faxriy sportchilar tomonidan kamida 1 ta sport turi bo'yicha to'garaklar faoliyatini tashkil etish



to'garaklar faoliyatini keng yoritish va ularga o'quvchilarni qamrab olish maqsadida barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak jadvali bo'lishini ta'minlash




har bir umumiy o'rta ta'lim maktabida futbol, basketbol, voleybol, gandbol va boshqa jamoaviy o'yin turlari bo'yicha jamoalar tuzsin hamda muntazam ravishda maktab jamoalari o'rtasida musobaqalar o'tkazish



Sportni rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda bolalar-o'smirlar sport maktablarining yo'riqchi-uslubchilari tomonidan har chorakda bir marta umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatilishini tashkil etish

MUSOBAQA O‘TKAZISH USULLARI

Har xil sport turlari bo‘yicha musobaqa amaliyotida musobaqa o‘tkazishning quydagi usullari qo‘laniladi



aylanma
usul

- bunda har bir sportchi (jamo) boshqalari bilan birma-bir uchrashib chiqqunga qadar musobaqa davom ettiriladi

o‘yindan
chiqish

- bunda sportchi (jamo) birinchilik uchun kurashda bir yoki ikki mag‘lubiyatdan keyin (musobaqa shartiga binoan) bellashuvni davom etirishidan mahrum etiladi

oraliq

- bunda yuqoridagi har ikkala usul aralashma holda qo‘llaniladi

BESH
TASHABBUS
OLIMPIADASI



**E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!**